


## AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARA YONIDAGI MUHIM AHAMIYATI



*Abdusalomova Sarvinoz Husanjon qizi*

*Filologiya fakulteti talabasi*

*Aldashev Ilhomjon To'xtaboyevich*

*Axborot texnologiyalari kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda maktab, litsey va universitetlarda o'quvchilarga ta'lif berish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, ularning ta'limga bo'lgan qiziqish va qobilyatlarini shakillantirish haqida so'z boradi. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqot natijalarini qo'llagan holda, ularni dars jarayonlarida qanday tadbiq etish choralari muammolarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy texnologiyalar, dars jarayonlari, tadqiqot, axborot kommunikatsiya, Ijtimoiy tarmoqlar, pedagogik texnologiya

Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Ta'lif jarayonida, dars mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ishlatalishi o'qishga bo'lgan talabalarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birqalikda ta'lif sohasida, talabalarning o'qish va ta'lif olishiga yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

XXI-asr "Axborot texnologiyalar" davri deb bekorga aytilmagan. Insonning har daqiqasi texnologiyalarga bog'lanib qolgan. Mana oddiygina misol, har kuni ertalab turib birinchi qiladigan ishimiz, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar, shaxsiy xabarlarni tekshiramiz. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lif sifatini oshirishdagi o'rmini inobatga olgan holda, ta'limda internet texnologiyalari moduli, zamonaviy internet texnologiyalari doirasida tinglovchilarda kerakli nazariy, amaliy va malakaviy ko'nikmalarga ega bo'lish, kasbiy mahoratlarini mehnat faoliyat davrida oshirish imkonini beradi va bilimlarni sohaning ishlab chiqarish korxonalarida, amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, ko'nikmalar va bilim berishga asos bo'lib, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va loyixalash ishlarini yuqori saviyada bajarilishini ta'minlaydi. Ta'lif-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lif vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki televideniyalarda tez-tez qulqoqqa chalinadigan IT ("ayti") yoki Axborot texnologiyalarning qanchalik muhim ahamiyati bor? Bular bizning hayotimizni o'rab olgan desak ham bo'ladi: mobil aloqalar, internet, sog'liqni saqlash, ta'lif va hokzo. Texnologiyaning foydali taraflari ham juda ko'p. Masalan, tezkor axborot olish. Buni oddiygina Telegram, Instagram, Facebook yoki boshqa ijtimoiy

tarmoqlardagi blog saytlarning tezlikdagi yangilikni obunachilarga taqdim etishidir. IT ning qulaylik taraflarni aystsak son sanog'i yo'q. Kompyuterli o'qitish texnologiyalari Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birlgilikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi.

Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta'minlaydi:

- interfaollik
- multimedia
- kommunikativlik
- unumdonlik

Pedagogik texnologiya -bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lga ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchining texnologik vositalari, kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'r ganuvchi o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobjiy natijaga erisha olsa, o'qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish shartlari, Ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari, Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish kabi masalalar yoritilgan. Pedagogik texnologiyaning xulosalari va tavsiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya pedagogika qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim tushunchasi, ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy ravishda uzatilishini ta'minlovchi tizimli jarayon ham hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. –Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi, 2006. –b. 43-45.
2. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent. "Sano -Standart" MCHJ bosmaxonasi, 2010. –b. 112-113.
3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023

4. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI  
M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
5. O 'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
8. Shermatova, N. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo 'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"
9. THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113). Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lif Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
10. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.
11. O 'QITUVCHI ISHINDA IJODIY YONDARISH XUSUSIYATLARI I Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
12. Ta'lif jarayonida kompyuter o'yin texnologiyalarining o'rni\*ITX Aldashev - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022 The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev - 2022